

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA BANKLARNING O'RNI

Iskandarov Murod Lukmanovich

“O‘zmilliybank” AJ Xatarlarni boshqarish departamenti, Axborot – analitika boshqarmasi
boshlig‘i, Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD.

Umurzoqov Tohir Jobir o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

tohirumurzoqov555@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17491671>

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholining bandligini ta‘minlashda tijorat banklarining o‘rni chuqur tahlil etilgan. So‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotida bandlik darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va iqtisodiy faollikni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu jarayonda bank tizimi nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning barqaror manbai sifatida ham muhim rol o‘ynamoqda. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, startap loyihalar hamda xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirilgan kreditlarning aholining bandligiga ta‘siri tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan oxirgi yillar oralig‘idagi statistik ma‘lumotlar asosida kredit hajmlari va hosil qilingan ish o‘rinlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlar hajmining oshishi bandlik ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘sishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida banklarning faol ishtiroki iqtisodiyotning past daromadli qatlamlari uchun yangi daromad manbalarini hosil qilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, aholi bandligi, kredit siyosati, moliyaviy inklyuziya, tadbirkorlik, iqtisodiy faollik, ijtimoiy barqarorlik.

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the role of commercial banks in ensuring employment in the Republic of Uzbekistan. In recent years, increasing the employment rate, reducing poverty and expanding economic activity in the country's economy have been identified as one of the priority areas of state policy. In this process, the banking system plays an important role not only as a financial intermediary, but also as a sustainable source of economic development. The study analyzes the impact of loans provided by commercial banks to small businesses, family entrepreneurship, startup projects and the service sector on employment. The authors studied the correlation between loan volumes and jobs created based on statistical data from recent years. The results show that an increase in the volume of preferential loans leads to a significant increase in employment indicators. In particular, the active participation of banks in programs such as "Every Family is an Entrepreneur" and "Youth is Our Future" has created new sources of income for low-income segments of the economy.

Keywords: commercial banks, employment, credit policy, financial inclusion, entrepreneurship, economic activity, social stability.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi – aholi farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirishdan iboratdir. Bandlik masalasi nafaqat ijtimoiy barqarorlikning muhim omili, balki iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida ham qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlashda moliyaviy sektor, ayniqsa, tijorat banklarining faol ishtiroki dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Banklar kredit, lizing, mikroqarz va investitsion mexanizmlar orqali iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirib, bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari bugungi kunda nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim institut sifatida shakllanmoqda. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Ayollar daftari" kabi davlat dasturlari doirasida ajratilgan bank kreditlari yuz minglab fuqarolarning mehnat faoliyatini boshlashiga, o'zini o'zi band qilish imkoniga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda. Natijada, bandlik darajasi ortib, ichki iste'mol bozori kengaymoqda, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.

Shu bilan birga, aholining bandligini oshirish jarayonida bank tizimining roli faqat moliyaviy resurslar ajratish bilan cheklanmaydi. Banklar investitsion muhitni yaxshilash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, startup tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy diversifikatsiyaga hissa qo'shmoqda. Mazkur tadqiqotda bank sektorining bandlik siyosatidagi o'rni, kredit siyosati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi, shuningdek, O'zbekiston sharoitida moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy yo'naltirilgan bank amaliyotlarining yanada takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekiston olimlari orasida bank kreditlari va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik tahlil qilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. H. Tursunov o'z izlanishlarida tijorat banklarida ajratilgan kreditlar hajmi, muammoli kreditlar (NPL) darajasi hamda bandlik indikatorlari o'rtasidagi munosabatni panel ma'lumotlar asosida o'rgangan. Unga ko'ra, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik yo'nalishidagi kreditlar hajmi ortgani sari yangi ish o'rinlari yaratish faolligi oshgan, biroq muammoli kreditlar ulushi ko'paygan davrlarda banklar riskdan qochish siyosati tufayli bandlik o'sishi sekinlashgan (Tursunov, 2023). Bu holat banklarning kredit sifati bilan bandlik siyosatini muvofiqlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shunga o'xshash tarzda, A. Abdurahmonov mamlakat miqyosida 2019–2024-yillar oralig'ida kredit siyosati va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. U xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kredit hajmi bilan yangi ish o'rinlari o'rtasidagi elastiklik yuqori ekanini aniqlagan. Muallifning fikricha, imtiyozli kreditlarning bandlikka ta'siri eng kuchli sohalarni aniqlash orqali davlat dasturlarini sektorlar kesimida differensiallashtirish lozim (Abdurahmonov, 2021).

Moliyaviy inklyuziya va mikromoliyalash yo'nalishida N. Hasanov tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham e'tiborga molikdir. U mikrokredit olgan uy xo'jaliklarida o'zini-o'zi band qilish ehtimoli oshishini va norasmiy bandlikdan rasmiy mehnat sektoriga o'tish jarayonining tezlashishini empirik isbotlab bergan (Hasanov, 2022). Shu tariqa mikromoliyaviy institutlar va banklarning kichik kredit dasturlari ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yevropa tajribasida Kraemer-Eis (2020) va EIF/EIB instituti tadqiqotlari kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish orqali bandlikni oshirishni baholagan. Ular kafolatlangan kredit liniyalari olgan korxonalarda sof bandlik o'sishi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lganini aniqlashgan (Kraemer-Eis, 2020). OECD esa mamlakatlar kesimida olib borilgan tadqiqotida

rag'batlantiruvchi kredit siyosati, raqamli moliyalashtirish va kafolat fondlarining bandlikni barqaror oshirishga xizmat qilganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "targeting" – ya'ni aniq maqsadli segmentlarga yo'naltirilgan kredit siyosati muhim omil sifatida ko'rsatilgan (OECD, 2021).

Osiyo mamlakatlari tajribasida N. Yoshino va F. Taghizadeh-Hesary tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kreditga kirish imkoniyati kengaygan sari kichik bizneslarda mehnat talabi oshishini ko'rsatgan. Ular risklarni kamaytirish uchun kafolat fondlari va kredit axborot infratuzilmasi muhimligini qayd etgan (Yoshino & Taghizadeh-Hesary, 2021). Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki (ADB, 2023) tomonidan tayyorlangan siyosiy hujjatlar ham moliyaviy inklyuziya indeksining oshishi, ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini rag'batlantirishini tasdiqlaydi (ADB, 2023). AQSh olimlari ham banklarning bandlik siyosatidagi rolini tahlil qilgan. Masalan, D. Autor va hammualliflar (2022) pandemiya davridagi "Paycheck Protection Program" (PPP) dasturining samaradorligini baholagan. Ular subsidiyalangan kreditlar qisqa muddatda ish o'rinlarini saqlab qolishga yordam berganini, ammo maqsadli (targeted) mexanizmlar samaradorlikni belgilab berganini ko'rsatishgan (Autor et al., 2022).

Jahon banki (World Bank, 2023) tomonidan O'zbekiston va Yaqin mintaqa bo'yicha o'tkazilgan tahlillar esa KOB kreditlashidagi to'siqlarni yumshatish yangi ish o'rinlari yaratish salohiyatini oshirishini, shuningdek kredit byurolari va garov reyestrlari infratuzilmasini isloh qilish bandlikka bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan (World Bank, 2023). Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO, 2021) esa moliyaviy xizmatlarning kengayishi nafaqat bandlik sonini, balki ish sifati – barqarorlik va ijtimoiy himoyani ham yaxshilashini ta'kidlaydi (ILO, 2021). Rossiyalik tadqiqotchilar (Akindinova va Gurvich maktabi) esa kredit sikllari bilan bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni vaqt qatori asosida tahlil qilib, iqtisodiy pasayish davrlarida KOB bandligining qisqarishini va kafolatli kredit chiziqlari orqali bu ta'sirni yumshatish mumkinligini aniqlagan (Akindinova, 2020). Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2024) O'zbekistonda moliyaviy sektorni liberallashtirish, davlat ulushi yuqori segmentlarda raqobatni kuchaytirish orqali xususiy investitsiyalarni faollashtirish bandlikni oshirishning muhim sharti ekanligini qayd etgan (IMF, 2024). Oxirgi yillardagi ilmiy manbalar banklarning kredit siyosati, mikromoliyalash, kafolat mexanizmlari va moliyaviy inklyuziya orqali bandlikni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Biroq ko'plab tadqiqotlarda uzoq muddatli ta'sir mexanizmlari va gender yoki hududiy tafovutlar yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida bank kreditlari va bandlik o'rtasidagi o'zaro aloqani yanada chuqurroq empirik modellar orqali tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda aholining bandligini ta'minlashda tijorat banklarining o'rni va ularning kredit siyosati ta'sirini o'rganish uchun kompleks iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi. Avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida iqtisodiy adabiyotlar tahlili, ilg'or xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va Markaziy bank normativ hujjatlari o'rganildi. Shu asosda banklar faoliyatining mehnat bozori bilan o'zaro aloqasi, kredit siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ta'sir mexanizmlari aniqlashtirildi.

Empirik tahlil bosqichida kvantitativ iqtisodiy usullar — korrelyatsion va regressiya tahlillari, shuningdek panel ma'lumotlar modellashtirish yondashuvi qo'llanildi.

Tadqiqot uchun 2019–2024-yillar oraligʻidagi Oʻzbekiston tijorat banklarining statistik maʼlumotlari, Davlat statistika qoʻmitasi hamda Bandlik va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hisobotlari asosiy maʼlumot manbasi sifatida olindi. Modellar yordamida kredit hajmi, kichik biznesga ajratilgan qarzlar, muammoli kreditlar (NPL) ulushi va yaratilgan ish oʻrinlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik aniqlanib, kredit siyosatining bandlik darajasiga bevosita va bilvosita taʼsiri baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli orqali Oʻzbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlardagi amaliyotlar bilan qiyoslandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo va AQShdagi bank tizimining bandlik siyosatiga taʼsir etish mexanizmlari oʻrganildi. Natijalar asosida mamlakatimiz sharoitida banklar faoliyatini yanada ijtimoiy yoʻnaltirilgan modelga oʻtkazish, mikromoliyalashtirish va oilaviy tadbirkorlikni kreditlash tizimini takomillashtirish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi olti yil davomida iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri — aholining bandligini oshirish hamda barqaror daromad manbalarini yaratish boʻlib kelmoqda. Bu jarayonda tijorat banklari muhim iqtisodiy vositachi sifatida ishtirok etib, turli sohalarida yangi ish oʻrinlari tashkil etilishiga bevosita moliyaviy asos yaratdi. Banklarning kredit siyosati, ayniqsa kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, yoshlar va ayollar tashabbuslarini moliyalashtirish orqali mehnat bozorining faolligiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Quyidagi jadvalda 2019–2024-yillar davomida bank kreditlari hajmi va bandlik koʻrsatkichlarining oʻzgarishi tahlil qilingan.

1-jadval

Tijorat banklari kreditlari hajmi va bandlik koʻrsatkichlari dinamikasi (2019–2024-yillar)

Yil	Umumiy bank kreditlari hajmi (trln soʻm)	Kichik biznes kreditlari (trln soʻm)	Yaratilgan yangi ish oʻrinlari (ming)	Band aholining umumiy soni (mln)	Yillik oʻsish surʼati (%)
2019	235.1	35.2	87.5	13.26	–
2020	272.4	42.8	93.4	13.41	1.1
2021	318.9	56.1	108.2	13.68	2.0
2022	378.4	71.3	126.0	13.94	1.9
2023	439.2	84.7	143.5	14.25	2.2
2024	506.8	98.5	158.6	14.59	2.4

Manba <https://cbu.uz/> maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval maʼlumotlariga koʻra, 2019–2024-yillar oraligʻida bank kreditlari hajmi 2,1 barobarga oshgan. Ayniqsa, kichik biznesni moliyalashtirish hajmi 35,2 trillion soʻmdan 98,5 trillion soʻmga yetgan, yaʼni 2,8 baravarga koʻpaygan. Bu davrda yangi ish oʻrinlari soni 87,5 mingdan 158,6 minggacha oshgan, band aholining umumiy soni esa 13,26 milliondan 14,59 million nafargacha koʻtarilgan. Bu natijalar tijorat banklarining bandlik siyosatidagi faol roli va kredit resurslarining ijtimoiy samarasini yaqqol koʻrsatadi. Tahlil shuni koʻrsatadiki, kredit hajmi va yangi ish oʻrinlari oʻrtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $R = 0.88$ ni tashkil etgan, bu esa ularning oʻrtasida kuchli ijobiy bogʻliqlik mavjudligini bildiradi.

Boshqacha aytganda, tijorat banklari tomonidan ajratilgan har 1 trillion soʻmlik qoʻshimcha kredit oʻrtacha 1,3 mingga yangi ish oʻrni yaratilishiga sabab boʻlgan.

Bu natija iqtisodiy o'sishning moliyaviy omillar orqali mehnat bozoriga qanday uzatilishini (transmissiya mexanizmini) isbotlaydi.

2-jadval

Tijorat banklari kreditlarining tarmoqlar kesimida bandlikka ta'siri (2024-yil yakuniga ko'ra)

Tarmoq yo'nalishi	Ajratilgan kreditlar hajmi (trln so'm)	Ish o'rinlari soni (ming)	O'rtacha ish joyi yaratish koeffitsienti (mln so'm/ish o'rni)	Tarmoq ulushi (%)
Qishloq xo'jaligi	21.4	39.8	537	25.1
Sanoat ishlab chiqarish	28.6	31.4	910	19.8
Xizmatlar sohasi	24.9	48.3	515	30.4
Qurilish sektori	9.8	12.1	809	7.6
Oilaviy tadbirkorlik va mikroloiyahalar	13.8	27.0	511	17.1
Jami	98.5	158.6	620 (o'rtacha)	100

Manba <https://cbu.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlanmasi>.

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligi tarmoqlari bank kreditlari hisobiga yaratilgan ish o'rinlarining qariyb 55 foizini tashkil etgan. Xizmatlar sohasi (ayniqsa savdo, transport, turizm va ta'lim) kredit resurslari hisobiga eng katta bandlik samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu sohada har bir 1 milliard so'mlik kredit o'rtacha 1,9 ta yangi ish joyi hosil qilgan. Qishloq xo'jaligida esa ko'plab kichik fermer xo'jaliklari va oilaviy ishlab chiqarish loyihalari kreditlar hisobiga rivojlanib, 40 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgan. Bunda "Agrobank" va "Biznesni rivojlantirish banki"ning imtiyozli kredit liniyalari muhim rol o'ynagan. Xizmatlar sohasidagi "Ipoteka-bank", "Xalqbank" va "Mikrokreditbank"ning kichik biznes dasturlari esa ayollar va yoshlar bandligini rag'batlantirishda sezilarli natija ko'rsatgan.

Statistik tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklari faoliyati iqtisodiyotning bandlikni oshiruvchi tarmoqlariga yo'naltirilgan sari multiplikativ ta'sir kuchayadi. Masalan, xizmat ko'rsatish sohasi kreditlarining 1 foizga oshishi bandlikni o'rtacha 0,6 foizga ko'taradi, bu esa real sektordagi daromadlar va soliqlar bazasini kengaytiradi. Shuningdek, mikromoliyalashtirish dasturlari tufayli o'zini-o'zi band qilgan shaxslar ulushi 2024-yilda umumiy bandlar tarkibida 17 foizga yetgan, bu 2019-yilga nisbatan 5,2 foiz punktga yuqori. Yana bir muhim natija shundan iboratki, kreditlarning sifat ko'rsatkichlari (xususan NPL darajasi) barqaror bo'lgani sari bandlikning o'sish sur'ati tezlashgan. 2020-yilda pandemiya ta'sirida NPL 5,8 foizga chiqqan va shu yili bandlik o'sishi atigi 1,1 foizni tashkil etgan. 2023-yilga kelib NPL 3,9 foizga tushgan va bandlik o'sishi 2,2 foizga yetgan. Demak, kredit portfeli sifati – bandlik barqarorligi uchun asosiy moliyaviy indikator hisoblanadi. Oxirgiyillar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kredit siyosati nafaqat iqtisodiy faollikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlovchi omilga aylangan. Kredit resurslari real sektorni, ayniqsa xizmatlar, qishloq xo'jaligi va oilaviy tadbirkorlik tarmoqlarini moliyalashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu sababli, bank tizimi faoliyatini bandlik siyosati bilan uzviy bog‘lash va moliyaviy inklyuziyani yanada kengaytirish O‘zbekiston uchun kelgusi yillarda strategik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Muhokama: Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarining kredit siyosati bandlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. 2019–2024-yillar davomida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish hajmining 2,8 baravarga oshgani, band aholining umumiy sonining esa 1,3 million kishiga ortgani bu bog‘liqlikni yaqqol tasdiqlaydi.

Kredit siyosatining bunday ijobiy natijalari, avvalo, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, imtiyozli kredit dasturlari — “Yoshlar – kelajagimiz”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Ayollar daftari” kabi loyihalar bandlik siyosatini ijtimoiy yo‘naltirilgan shaklda amalga oshirish imkonini bergan. Natijada, bank sektori mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish va barqaror mehnat bozorini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin egallagan. Shu bilan birga, tahlillar bank kreditlari hajmining oshishi bandlikka faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Banklar tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarda ish o‘rinlarining o‘rtacha barqarorligi, raqobatbardoshligi va daromad darajasi yuqoriroq bo‘lgan. Bu holat moliyaviy inklyuziyaning kengayishi bilan bir qatorda, ishchi kuchining rasmiy mehnat sektoriga o‘tish jarayonini tezlashtirgan. Ayniqsa, mikromoliyalash va startup kredit liniyalari tufayli o‘zini-o‘zi band qilgan aholining ulushi 2019-yildagi 11,8 foizdan 2024-yilda 17 foizgacha oshgani kuzatilgan. Bu esa bank sektorining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy o‘zgarishlarga ham faol ta’sirini namoyon etadi.

Kredit siyosatining bandlikka ta’siri barqaror bo‘lishi uchun bank tizimidagi moliyaviy risklar nazorat ostida bo‘lishi lozim. 2020-yilda pandemiya oqibatida muammoli kreditlar (NPL) darajasining 5,8 foizga chiqishi natijasida banklar riskdan qochish siyosatini kuchaytirgan, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilish sur’atini pasaytirgan. 2022–2024-yillarda NPL 4 foizdan past darajada ushlab turilgach, bandlik o‘sish sur’atlari qayta tiklangan. Bu holat kredit portfeli sifati bilan bandlik siyosati o‘rtasida bilvosita makroiqtisodiy uzatish mexanizmi mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, banklardagi risk-menejmentni takomillashtirish, kredit baholash tizimlarini mustahkamlash va garovsiz moliyaviy mahsulotlarni kengaytirish bandlikning barqaror o‘shishiga zamin yaratadi. Xalqaro tajriba tahlillari ham O‘zbekiston amaliyoti bilan uyg‘un natijalarni ko‘rsatadi. Masalan, Yevropada EIF va OECD tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar kafolatlangan kredit liniyalari kichik biznes bandligini oshirishda eng samarali vosita ekanini isbotlagan.

Osiyoda esa ADB va ADBI tahlillari raqamli moliyalashtirish va ayollar uchun mo‘ljallangan kredit dasturlari mehnat bozorini diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston banklari ham xuddi shu yo‘nalishda — raqamli platformalar asosida mikroqarzlarni, tezkor kreditlash va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish orqali bandlik siyosatini takomillashtirmoqda. Shunday qilib, bank sektorining strategik yo‘nalishi iqtisodiy o‘shish bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlikni ham mustahkamlovchi kuch sifatida shakllanmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari so‘nggi yillarda nafaqat moliyaviy vositachilik, balki iqtisodiy o‘shish va bandlik siyosatining faol ishtirokchisiga aylandi. O‘xirgi yillar davomida banklar tomonidan kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va startup tashabbuslarini kreditlash hajmining sezilarli oshishi mehnat bozorida ijobiy siljishlarga sabab

bo'lgan. Statistik tahlillar kredit hajmi va bandlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi: banklar tomonidan ajratilgan har bir trillion so'mlik qo'shimcha kredit o'rtacha 1,3 mingta yangi ish o'rni yaratilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, imtiyozli va kafolatli kredit dasturlari iqtisodiyotning mehnat talabini oshirgan hamda aholi daromadlarini barqarorlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Kelgusida tijorat banklarining bandlik siyosatidagi o'rnini kuchaytirish uchun moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etish, risk-menejment tizimini takomillashtirish va ijtimoiy yo'naltirilgan kredit liniyalarini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ayollar, yoshlar va qishloq aholisi uchun mo'ljallangan moliyaviy dasturlarni kengaytirish iqtisodiyotda barqaror ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Tijorat banklarining kredit portfeli sifati, tarmoq diversifikatsiyasi va ijtimoiy samaradorlikka yo'naltirilgan strategiyasi kelajakda O'zbekistonning inklyuziv va barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim tayanch bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tursunov, H. (2023). Tijorat banklarining kredit portfeli va bandlik o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 5(2), 45–56. Toshkent.
2. Abdurahmonov, A. (2021). Kredit siyosati va iqtisodiy faollik orqali bandlik. BMA nashriyoti, Toshkent.
3. Hasanov, N. (2022). Mikromoliyalash va oilaviy tadbirkorlikning bandlikka ta'siri. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(3), 72–83.
4. Jo'rayev, M. (2020). O'zbekiston bank tizimida imtiyozli kreditlarning ijtimoiy samaradorligi. Moliyaviy tahlil jurnali, 2(1), 31–42.
5. Akindinova, N. & Gurvich, E. (2020). Credit cycles and SME employment dynamics in Russia. Higher School of Economics Journal, 24(3), 211–225.
6. Kraemer-Eis, H. (2020). SME financing and job creation in Europe. Luxembourg: European Investment Fund Working Paper.
7. OECD. (2021). SME and Entrepreneurship Outlook 2021. Paris: OECD Publishing.
8. Yoshino, N. & Taghizadeh-Hesary, F. (2021). SME finance, growth and employment in Asia. Tokyo: Asian Development Bank Institute.
9. Asian Development Bank (ADB). (2023). Financial inclusion and labour market participation in Asia-Pacific. Manila: ADB Policy Paper.
10. Autor, D., Dorn, D., & Hanson, G. (2022). The Paycheck Protection Program and employment effects in the United States. Journal of Economic Perspectives, 36(2), 35–58.
11. World Bank. (2023). Financial sector and employment in Uzbekistan and Central Asia. Washington D.C.: World Bank Publications.
12. International Labour Organization (ILO). (2021). Financial services and decent work outcomes. Geneva: ILO Report Series.
13. <https://cbu.uz/>